DEMODEKS INFESTATSIYASINING ROZASEANING KLINIK FAOLLIGI VA TERI MIKROFLORASI BILAN BOG‘LIQLIGI

E.X. ESHBOYEV[1], F.A. ORALOV[2]
[1,2]Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O‘zbekiston

DOI: 10.67620/dermajournal.1730028

Tadqiqotning dolzarbligi. Rozasea surunkali, qaytalanuvchi kechishi bilan tavsiflanadi. Kasallikda yallig‘lanishni kuchaytiruvchi omillardan biri Demodex kanalarining ko‘payishi bo‘lib, uning klinik belgilar va teri mikroflorasi bilan bog‘liqligini baholash muhim.

Tadqiqot maqsadi. Demodex infestatsiyasining rozasea klinik faolligi va teri mikroflorasi bilan bog‘liqligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotga Toshkent viloyati Olmaliq shahar teri tanosil kasalliklari bo‘limida rozasea tashxisi qo‘yilgan 50 nafar bemor kiritildi. 20 nafarida eritematoz-teleangiektatik, 30 nafarida papulo-pustulyoz shakl aniqlandi. Asosiy klinik belgilar va qaytalanish chastotasi baholandi. Demodex mikroskopik usulda aniqlanib, ≥5 kana/sm^2 klinik ahamiyatli deb qabul qilindi. Zararlangan teri sohalaridan mikrobiologik tekshiruv ham o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Jami 50 bemorning 31 nafarida Demodex-positive holat aniqlandi. Demodex infestatsiyasi papulo-pustulyoz rozaseada 76,7%, eritematoz-teleangiektatik shaklda esa 40,0% ni tashkil etdi ($p<0,05$). Kanalarning o‘rtacha zichligi ham papulo-pustulyoz shaklda yuqori bo‘lib, mos ravishda 8,5±3,6 va 4,2±2,1 ta/sm^2 ni tashkil etdi ($p<0,001$). Demodex-positive bemorlarda papulalar 87,1%, pustulalar 71,0%, qichishish 74,2%, teri quruqligi 77,4% va tez-tez qaytalanish 74,2% holatda kuzatildi. Ushbu ko‘rsatkichlar Demodex-negative bemorlarda pastroq bo‘ldi. Demodex-positive bemorlarda Staphylococcus spp. 61,3% holatda, Demodex-negative bemorlarda 31,6% holatda, aralash mikroflora esa mos ravishda 48,4% va 21,1% holatda aniqlandi.

Xulosalar. Demodex yuklamasining ortishi rozaseaning faol klinik kechishi, yallig‘lanish elementlari, qichishish, teri quruqligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Infestatsiyaning eng yuqori darajasi papulo-pustulyoz shaklda kuzatildi.